

“Olmaliq KMK” AJning Korrupsiyaga qarshi Siyosati

2025-yil.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat deb yuritiladi) Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda uning tarkibiy korxonalarida (zavod, fabrika, sex, laboratoriya, konlar boshqarmalari va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha **ISO 37001:2016 “Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo‘yicha talablar va qo‘llanma” xalqaro standarti** talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriyetish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Kombinat xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Kombinatda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi tamoyilini ta‘minlashni aks ettiradi.

2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish, rangli va nodir metallar rudalari yangi konlarini o‘zlashtirish sohasida tog‘-kon sanoatini yuritish, foydali qazilmalarni olish va ularni kelgusida qayta ishlashni tashkillashtirishning zamonaviy usullari tatbiq etilishini ta‘minlash, rangli va nodir metallarni chuqur qayta ishlash asosida eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini kuchaytirishga yo‘naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirishdan iborat.

3. Siyosat, **ISO 37001:2016 “Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo‘yicha talablar va qo‘llanma” xalqaro standarti** talablarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, shuningdek ilg‘or xalqaro amaliyot asosida O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Siyosat, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” Aksiyadorlik jamiyatining ijro apparati bo‘linmalari (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, kotibiyat, ofis, buyoro, sektor va boshqalar) hamda tarkibiy korxonalar (zavod, fabrika, sex, laboratoriya, direksiya, ruda va kon boshqarmalari keyingi o‘rinlarda – Kombinat deb yuritiladi) faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga barham berishga yo‘naltirilgan asosiy tamoyil va talablarni belgilovchi muhim ichki normativ hujjat bo‘lib, Kombinat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar uchun dasturamal vazifasini o‘taydi.

Shu bilan birga, Kombinat ijro apparatidagi har bir bo‘linma hamda tarkibiy korxona, ushbu Siyosatni o‘z faoliyatining turi, sohasi hamda yo‘nalishidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilishi, ushbu tuzilmada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni joriy etish maqsadida nazorat choralari va tartib- taomillarini ishlab chiqish va joriy etish bosqichida, muayyan bo‘linmaga xos bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar, unda orttirilgan tajriba hamda mavjud bo‘lgan imkoniyat va resurlarini inobatga olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Kombinat ijro apparati xamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashishdan ko‘zlangan **asosiy maqsadlar** quyidagilardan iborat:

Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyani tubdan yo‘qotishga erishish;

Kombinat xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yanada yuksaltirish;

Kombinat faoliyatida korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishlariga nisbatan mutlaqo toqatsizlik (murosasiz) munosabatni shakllantirish;

Kombinat faoliyatida, barcha soha va yo‘nalishlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ustuvorligini e‘tirof etish hamda bunday chora-tadbirlarni Kombinat tizimida izchil joriy etish;

Kombinat tizimida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, korrupsiyaga olib keluvchi sabablari, shart-sharoitlari va omillarini bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini hech bir istisnalarsiz ta‘minlashdan iborat.

5. Ushbu Siyosat Kombinatning ichki normativ hujjati sifatida 4-bandda ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun Kombinat faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan birlamchi talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

6. Mazkur Siyosatning talablari egallab turgan lavozimi, mavqei va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat‘iy nazar, Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalari bilan bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan barcha bo‘g‘in va darajadagi xodimlarga, shu jumladan, Kombinat boshqaruvining a‘zolari, rais o‘rinbosarlari, ijro apparatidagi bo‘linmalar rahbarlari, tarkibiy korxonalar rahbarlari, Kombinatning boshqa mansabdor shaxslari, injener-tehnika toifadagi xodimlar, shuningdek barcha ishchi va xodimlarga nisbatan tadbiriq etiladi.

Kombinatning yuqori rahbariyati (Kuzatuv kengashi hamda Boshqaruv a‘zolari) korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining talablariga qat‘iy rioya etishni va uni doimiy ravishda takomillashtirish majburiyatini o‘z zimmlariga oladi.

7. Kombinatga yangidan ishga qabul qilinayotgan har bir xodim ushbu Siyosatning qoida va talablari bilan shaxsiy imzosini qo‘ygan holda tanishtirilgan sanadan boshlab, uning qoida va talablarini og‘ishmay bajarish majburiyati va mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oladi.

8. Ushbu Siyosat maqsadlarida quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

aloqador shaxslar – aloqador shaxslar:

Kombinat xodimining yaqin qarindoshlari;

Kombinat xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

Kombinat xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari – Kombinat xodimlari bilan ularning xizmat mavqei va (yoxud) egallab turgan lavozimidan bevosita yoxud bilvosita naf ko'rish maqsadida hamkorlik o'rnatish va (yoxud) bunday hamkorlikni saqlab qolish uchun xodimning ovqatlanish, transport, yashash va boshqa shaxsiy xarajatlarini uchinchi shaxslar tomonidan qoplab berilishida ifodalanadi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar buzilganligi to'g'risida vijdonan xabar berish – Kombinat xodimi tomonidan korruptsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (yoxud sodir etishga suiqasd qilinganligi) to'g'risida, ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali asoslilikiga ishonch hosil qilgan holda yollangan murojaat;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yohud jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor);

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoxud xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat yoxud harakatsizligi (qilmishi) uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali porani, ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tushdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vada qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoxud) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar olish, xodim tomonidan pora olish yoxud qonunga xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat (lavozim) mavqeidan noqonuniy foydalanishi;

korruptsiyaviy huquqbuzarlik – korruptsiyaviy belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish (harakat yohud harakatsizlik);

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki normativ hujjatlarni korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Kombinat xodimlari tomonidan yuksak darajada kasbiy va xizmatdagi odob-ahloq qoidalariga asosan faoliyat olib borishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

korruptsiyaviy xavf-xatar – Kombinat xodimlari yoxud uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat ijro apparatidagi bo'linmalar hamda tarkibiy korxonalar nomidan va (yoxud) ularning manfaatlarini ko'zlab korruptsiyaviy xatti- harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'shimcha shart – Kombinat tomonidan tuziladigan barcha shartnomalarga kiritilishi majburiy bo'lgan maxsus qoidalar yig'indisi bo'lib, ushbu qoidalar Tomonlar zimmasiga xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi qonunchiligining qoida va talablariga qat'iy rioya qilish majburiyati va mas'uliyatini yuklaydi;

manfaatlar to'qnashuvi — Kombinat ijro apparati bo'linmalari va/yohud tarkibiy

korxonalarida muayyan lavozimni egallab turgan shaxsning manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoxud tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoxud nomoddiy naf;

shaxsiy manfaatdorlik — Kombinat ijro apparati bo'linmalari va/yohud tarkibiy korxonalar xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

xodim (xodimlar) – Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs, shu jumladan Boshqaruv raisining o'rinbosarlari;

shafelik (homiylilik) – yon bosish, qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklida Kombinat xodimini yuqoriroq lavozimdagi boshqa xodim tomonidan himoya qilinishi;

yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

9. Kombinat ijro apparati bo'linmalar hamda tarkibiy korxonalar rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatini quyidagi **tamoyillarga asoslanib** amalga oshiradilar:

qonuniylilik – Kombinat ijro apparatidagi bo'linmalar hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat boshqaruv organlari hamda davlat ulushi ishtirokidagi korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jahon tajribasida tan olingan ilg'or xalqaro tajriba va amaliyotni inobatga olgan holda hamda Kombinatning sohaga oid ichki normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

korrupsiyaga nisbatan mutlaqo toqatsizlik – Kombinat xodimlari o'z faoliyatining barcha soha va yo'nalishlarida korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishlariga nisbatan mutlaqo murosasiz (toqatsizlik) munosabatda bo'ladilar. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarining barcha bo'g'in va darajadagi xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatda bevosita yoxud bilvosita ishtirok etish qat'iyan ta'qiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik – Kombinat hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalari to'g'risida, Kombinat xodimlari, kontragentlar (shartnomaviy sheriklar) va keng jamoatchilik muntazam ravishda xabardor qilinadi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventivligi, tizimliliigi va o'zaro bog'liqligi – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarda korruptsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishiga, korruptsiyaviy xatarlar vujudga kelishiga sabab bo'ladigan shart-sharoit va omillarni bartaraf etishga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalar faoliyatining barcha yo'nalishlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi. Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar, Kombinat faoliyatida aniqlangan xatarlar darajasiga mutanosib bo'lib, Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarning barcha funksiya va yo'nalishlariga integratsiya qilingan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markazlashtirilgan yagona tizimga birlashtiriladi;

korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi – korruptsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Kombinat xodimlari, ularning mavqeidan va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar Kombinatning ichki normativ hujjatlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimni yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot kommunikatsiya tizimlaridan keng miqiyosda foydalaniladi;

to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalardagi har bir xodim basharti u korruptsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risida ishonchli va asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lsa, qonunchilikda belgilangan choralarni ko'rishni so'rab, hech bir moneliksiz to'g'ridan-to'g'ri va bevosita **Komplayens xizmati** (keyingi o'rinlarda – Xizmat deb yuritiladi) yoxud Boshqaruv raisiga hamda Xizmatning @OKMK_Komplayens va boshqa Telegram kanallariga murojaat qilish huquqiga ega;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalar rahbarlari va mansabdor shaxslari o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda Kombinat va uning tizimi faoliyatini ochiqlik, shaffoflik, halollik, xolislik tamoyillari asosida mustaqil nazorat qilinishini ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyatining ilg'or vakillari bilan hamkorlik qiladilar;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilishning natijalaridan kelib chiqib, Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalardagi korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi muntazam ravishda takomillashtirib boriladi.

3- bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish tarkibining elementlari

10. Korruptsiyaga nisbatan **“mutlaqo toqatsizlik”** tamoyiliga tayangan holda Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarning barcha xodimlariga korruptsiya bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etish, ya'ni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilish yoxud harakatsizlik uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali pora, ya'ni pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tUSDagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, vada berish va pora berish, pora berish va (yoxud)

olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar olish, shaxs tomonidan pora olish yoxud g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish qat'iy ta'qiqlanadi.

11. Quyidagilar Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalda bo'lgan va joriy qilingan asosiy ichki normativ hujjatlar to'plami hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining mavjudligi, ya'ni Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslari yaratilganligi va joriy etilganligi:

mazkur Siyosatning Kombinatda qabul qilinishi va joriy etilishi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning "Xizmatdagi odob-ahloq" qoidalarining qabul qilinganligi va joriy etilish xolati;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinganligi va joriy etilganligi;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilma"si tashkil qilinganligi va uning faoliyati yo'lga qo'yilganligi, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda mazkur tuzilma yetarli darajada mustaqillikka va muhim (ma'muriy, moliyaviy, nazorat, texnikaviy, tashkiliy-huquqiy va boshqa) resurslarga ega bo'lgan holda, bevosita va to'g'ridan-to'g'ri Kuzatuv kengashiga bo'ysunishi hamda faqat unga hisobdorligi, Komplayens xizmatining faoliyati Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizomda belgilangan tamoyillar va talablardan iborat bo'ladi.

b) "Yuqoridan quyiga munosabat" – Yuksak darajadagi rahbarlik namunasi:

Kuzatuv Kengashining a'zolari, Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparati bo'linmalari rahbarlari hamda tarkibiy korxonalarning barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlari, o'z bo'ysunuvidagi xodimlar, fuqarolar, jismoniy/yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik, davlat hamda Kombinat manfaatlariga sodiqlik, adolat, halollik, xolislik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik kabi yuksak xulq-atvorning shaxsiy namunasini namoyon etishlari lozim.

Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, ijro apparati bo'linmalari rahbarlari hamda tarkibiy korxonalarning barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimni yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali yetakchilik (liderlik) namunasini shaxsan namoyish etadilar:

Kombinat faoliyatining korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ega funksiyalari yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlar va tartiblarni birinchilardan bo'lib joriy etish, shu jumladan, o'zi rahbarlik qilayotgan tarkibiy bo'linma yohud korxonada korrupsiyaga qarshi kurashishning eng ilg'or va tizimli dasturi/yo'l xaritasini ishlab chiqish, tasdiqlash, kundalik ish faoliyatiga joriy etish va uning ijrosini muntazam ravishda nazorat qilish orqali

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi faoliyatiga amaliy shaklda ko'maklashish;

O'z mansab vakolatlari, xizmat va lavozim majburiyatlari, vazifa va funksiyalarini bajarish doirasida, Kombinat xodimlarda korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga nisbatan toqatsiz va muvossasiz munosabatni shakllantirgan holda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlarining normalari va qabul qilingan ichki normativ hujjatlarga qat'iy rioya qilishi va yuksak ahloqiy xulq-atvor namunasi va shaxsiy o'rnakni namoyon etish;

xizmat vazifalarini bajarish chog'ida davlat tamoyillari va talablariga qat'iy rioya etish;

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori turuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarish;

o'z faoliyatini qonun hujjatlarida, Kombinat ustavi, mazkur Siyosat hamda boshqa ichki normativ hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o'z xizmat va lavozim vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoxud tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, Kombinat xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda kadrlarni tanlash va tayinlashda, rag'batlantirish, mukofotlash, javobgarlikka tortishda qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik va mahalliychilik yoxud shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va tayinlash kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak, guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm, nepotizm, kronizm ko'rinishlarining, shuningdek o'z xizmat va lavozim vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olish;

o'z xizmat va lavozim vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari va ichki normativ hujjatlarda belgilangan cheklov va taqiqlarga qat'iy rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini og'ishmay bajarish;

o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barham berish;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda faoliyat olib borayotgan barcha millat va elatlarning urf-odatlarini va an'alarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo, dinlar (etiqodlararo) va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashish;

o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoxud Kombinatning nufuzi va ishchanlik obro'siga zarar yetkazishim mumkin bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda xabarlar hamda xizmatga oid axborot va ma'lumotlarni taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etishi lozim.

c) korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar o'z funksional xususiyatlari, tashkiliy- huquqiy tuzilmasi, o'z faoliyatining barcha soha va yo'nalishlaridan kelib chiqib, uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek boshqa ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda xizmat vakolatlariga xos bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlaydi, ro'yxatini shakllantiradi va baholaydilar;

korrupsiyaviy xatarni aniqlash va baholash doirasida, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar faoliyatining barcha soha va yo'nalishlari korrupsiyaviy xatarlarga ko'proq moyil bo'lgan funksiyalarini aniqlash maqsadida tahlil qilinadi, bunda korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish tizimidagi mavjud tartib-taomillar va nazorat qilish mexanizmlari, shakllari, aniqlangan xatarni kamaytirish uchun yetarli va mutanosibligi jihatidan xam tizimli tahlil qilinadi;

Korrupsiyaviy xatarni aniqlash va baholash bilan bog'liq tadbirlar, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar tomonidan, basharti bo'linma yoki tarkibiy korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtiruvchi xodimlar tayinlangan bo'lsa, bunday xodimlar tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi xodimlarining uslubiy ko'magi hamda bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishiga nisbatan **“mutlaqo toqatsizlik”** tamoyili joriy etilganligi bois, Kombinat boshqaruvi a'zolari, rais o'rinbosarlari, ijro apparati bo'linmalari rahbarlari va tarkibiy korxonalardagi barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlar korrupsiyaviy xatarni yuzaga kelish ehtimoli yoxud bunday xatarni ta'sir qilish darajasidan qat'iy nazar korrupsiyaviy xavf-xatarni boshqarish zaruratini tan oladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaviy xavf-xatarni yalpi baholash tadbiri, yiliga kamida bir marotaba o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash natijalari Boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqiladi;

Aniqlangan xavf-xatarni boshqarish hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejalari yoxud yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

d) korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil qilish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan maxsus tarkibiy bo'linma – **Komplayens xizmati** tashkil etilgan;

Xizmat, Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va muhim

(ma'muriy, moliyaviy, tashkiliy-huquqiy) resurslarga ega bo'lib, bevosita va to'g'ridan-to'g'ri Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va faqat ungagina xisobdor bo'ladi hamda o'z faoliyatini Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Xizmat to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiradi;

Xizmat, **“Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo'yicha talablar va qo'llanma”** korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standartini Kombinatda joriy etish hamda ushbu xalqaro standart talablariga muvofiqligini ta'minlaydi;

Xizmat Kombinatning boshqaruv organi (Kuzatuv kengashiga) va yuqori rahbariyatga (Boshqaruv raisiga) korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining bajarilishi to'g'risida, zarurat tug'ilganda esa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa vakolatli davlat organlariga xisobot beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish uchun ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda mavjud shtat birliklari doirasida alohida lavozimlarga (shtat birliklariga) Boshqaruv raisining tegishli buyrug'i asosida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtirish funksiyasi yuklatilishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtirish funksiyasi, korrupsiyaviy xavf-xatari past bo'lgan lavozimda ishlayotgan, shuningdek, yetarli darajada mustaqil bo'lgan xodim yoki xodimlar zimmasiga yuklatiladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtiruvchi xodimlar korrupsiyani bartaraf etish choralari ko'radi, shu bilan birga, o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalar doirasida o'z faoliyatini Xizmat bilan muvofiqlashtiradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarining xodimlar bilan ishlash bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartib va hajmda, shuningdek “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aktsiyadorlik jamiyati va uning tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida”gi Nizomga muvofiq Kombinat xodimlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xodimlarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni belgilangan muddatda, tizimli ravishda yig'ish, tahlil qilish va yangilab borish uchun shaxsan mas'ul bo'ladilar;

Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi, xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va (manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda) uni hal qilish bo'yicha qaror qabul qiladi yoxud aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi yoxud yetarli emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda “Xizmatdagi odob-ahloq qoidalari”ga rioya qilinishi masalalarini ko'rib chiqadi;

Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi hamda xodimlar bilan ishlash bo'linmalari, manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga oid masalalarni ko'rib chiqishda, “Olmaliq KMK” AJ ning “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida”gi Nizomida belgilangan qoida va talablariga muvofiq ish yuritadilar;

e) aniqlangan korrupsiyaviy xatarlarni minimallashtirishga yo'naltirilgan chora va tartib-tamoyillar:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda yalpi nazorat muhitini ta'minlab beradigan korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks tizim joriy qilinadi, shuningdek korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo'lgan ayrim faoliyat yo'nalishlari hamda funksiyalarni nazorat qilish uchun alohida individual tartib-taomillar va nazorat choralari tizimi ham majburiy tartibda yo'lga qo'yiladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar tomonidan, tizim doirasida joriy etilgan nazorat choralari hamda tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasiga nisbatan mutanosibligi, xodimlar uchun qat'iy va aniqligi, shuningdek fuqarolik jamiyati a'zolari uchun ochiq va shaffof bo'lishi ta'minlanadi;

Amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilinadigan nazorat choralari va tartib-taomillar, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlari/ish rejaları/yo'l xaritalari kabi hujjatlarda aks ettiriladi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

f) axborotlashtirish, kommunikatsiya va maslahat berish:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarida korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillar, talablar, qoidalar hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida, Kombinatning Axborot (matbuot) xizmati tomonidan internet tarmog'idagi rasmiy veb-sahifasida muntazam yoritib boriladi;

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlarining talab va qoidalari, shuningdek Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida joriy etilgan tartib-taomillar va talablar haqida xodimlar va boshqa manfaatdor shaxslarni xabardor qilish, ularga sohaga oid hujjatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlarini yiliga kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida uzluksiz va tizimli tarzda o'qitish, shu jumladan, yangidan ishga qabul qilinayotgan xodimlarni ushbu Siyosat talablari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki normativ hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtirish bilan birgalikda xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy o'quv kurslarida o'qitish ishlari tashkil qilinadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo'lgan lavozimlar va funksiyalar uchun Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha ta'lim dasturlari joriy qilinadi. O'tkazilgan o'qitish/treninglarga safarbar qilingan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmatida qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanadi;

Kombinat xodimlari hamda fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz va murosasiz munosabatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va erishilgan natijalardan xabardorligini oshirish maqsadida, mavzuga oid (tematik) audio va videoroliklar hamda boshqa shakldagi axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid targ'ibot va tashviqot tadbirlari

muntazam ravishda o'tkaziladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risidagi gumonlar yoxud faktlar haqida, shuningdek Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy xavf- xatarlar, sohani takomillashtirishga oid takliflar to'g'risida Xizmatga xabar berish uchun (korrupsiya faktlari haqida xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari to'g'risidagi batafsil ma'lumot mazkur Siyosatning 4-bobida ko'rsatilgan) murojaatchilar uchun maxsus aloqa kanallari tashkil qilinadi;

Basharti, mazkur Siyosat qoidalarini amaliyotda qo'llash, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqan taqdirda, Xizmat tomonidan Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlariga malakali maslahatlar berish ta'minlanadi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning barcha ishchi va xodimlarning, shu jumladan Kombinat boshqaruvi a'zolarining mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'shimcha talab va majburiyatlar kiritiladi;

Xodimlar, fuqarolar tomonidan murojaat qilish uchun (shikoyatlar, arizalar, xabarlar, murojaatlar yo'llash uchun) Xizmatning barcha maxsus aloqa kanallari Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan barcha mehnat shartnomalarida alohida bo'limda majburiy tartibda ko'rsatib o'tilishi ta'minlanadi;

tasdiqlangan ish rejasi asosida, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda, Xizmatning mas'ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha halollik standarti ("halollik vaksinasi") xulq-atvorini shakllantirish va joriy etish maqsadida targ'ibot va tashviqot tadbirlari o'tkaziladi;

kontragentlarni (shartnomaviy sheriklarni) Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan talablar, majburiyatlar, tartib-taomillar, qoidalar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuzilgan va tuziladigan xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'shimcha shartlarni kiritish orqali xabardor qilinadi;

Xodimlar, fuqarolar, fuqaroligi yo'q shaxslar, shu jumladan Kombinatning kontragentlari tomonidan (shikoyatlar, arizalar, xabarlar, murojaatlar yo'llash uchun) murojaat qilish uchun Xizmatning barcha maxsus aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlar Kombinatning Moddiy texnik ta'minot boshqarmasi hamda Tovar bozorlari kon'yunkturasini o'rganish bo'limi tomonidan barcha xo'jalik shartnomalarida alohida bo'limda ko'rsatib o'tilishi ta'minlanadi;

g) monitoring, nazorat va hisobot:

Xizmat, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, nazorat choralari va tartib-taomillar va qoidalarining yetarliligi, mutanosibli va samaradorligini baholaydi hamda doimiy ravishda monitoring va nazorat tadbirlarini amalga oshiradi.

O'tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tarkibini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko'riladi.

Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib- taomillari amalga oshiriladi:

Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar faoliyatining xususiyatlari va funksiyalaridagi o‘zgarishlar, shuningdek tashkiliy-funksional tuzilmasidagi o‘zgarishlar hamda boshqa ichki va tashqi omillarning Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta‘sirini o‘rganish, mavjud tizimga o‘zgartirish kiritish zaruratini tahlil qilish, shu jumladan, mavjud tizimni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash;

tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq, Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalardagi korrupsiyaga qarshi kurashish tarkibining ishonchliligi va samaradorligini ta‘minlash, shuningdek samarasiz nazorat choralari va tartib-taomillarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish, bartaraf etish maqsadida, Xizmat tomonidan ixtiyoriy tanlov asosida Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarning vakolatlari, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarining o‘zaro mutanosibligi yuzasidan ichki tartib-taomillar, ishlab chiqarish jarayonlari monitoring qilinadi;

Xizmat, Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarida tegishli vakolatga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazishda, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va qoidalarga rioya qilinishi yuzasidan tahlil va nazoratni amalga oshiradi;

Xizmat, Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarning mansabdor shaxslari, ijrochi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqlarning belgilangan muddatda, to‘liq hajmda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo‘yicha chora-tadbirlar natijalari Boshqaruv raisi, uning o‘rinbosarlari, boshqaruv a‘zolari hamda Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar rahbarlarining choraklik (yarim yillik, to‘qqiz oylik va yillik) hisobotlarida aks ettiriladi.

h) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:

mazkur Siyosatning talab va qoidalariga rioya qilish, Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ijro qilish barcha xodimlar uchun o‘z xizmat va lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladilar. Bundan tashqari, xodimning bevosita rahbari ham o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi uchun javobgar hisoblanadilar;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va tamoyillarni buzgan xodimlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartib va asoslarda intizomiy, ma‘muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortiladilar;

xodimlar, ularni korrupsiyaviy huquqbuzarlikni sodir etishga undagan, da‘vat etgan yoxud taklif qilgan shaxslar haqida va bunday shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida,

shuningdek, Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida o‘ziga ma‘lum bo‘lgan har qanday faktlar haqida bevosita Boshqaruv raisiga va (yoxud) Xizmatga zudlik bilan xabar berishlari shart;

Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga nisbatan mutlaqo toqatsizlik tamoyili joriy etilganligini inobatga olib, Kombinat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligiga oid har qanday asosli shubha bo‘yicha xizmat tekshiruvlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablari hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik normalari va (yoxud) mazkur Siyosat talablarini, shuningdek Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan har qanday xodim, egallab turgan lavozimidan, mavqei, xizmat muddati va boshqa omillardan qat‘iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va asoslarda javobgarlikka tortiladi;

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik fakti aniqlangan taqdirda, Kombinat ijro apparatidagi tegishli bo‘linma hamda tegishli tarkibiy korxona rahbari, Xizmat bilan hamkorlikda muayyan huquqbuzarlikni sodir etishning sabablari, shart-sharoitlari hamda boshqa omillarni kompleks tahlil qiladilar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud tizimni takomillashtirish yuzasidan Boshqaruv raisiga asoslantirilgan takliflarni kiritadilar;

Kombinat ijro apparati bo‘linmalar hamda tarkibiy korxonalar rahbarlari tizimdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash (surishtirish) va tekshirish (tergov qilish) maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat idora va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladilar.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

§ 1. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish

12. Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlari o‘z xizmat va lavozim vazifalarini bajarishda yoxud Kombinat va uning tarkibi manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga qat‘iy amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab o‘z xizmat va lavozim mavqeidan, Kombinatning mol-mulkidan foydalanmasligi, shuningdek manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Kombinat ijro apparati bo‘linmalari va/yohud tarkibiy korxonalarida muayyan lavozimni egallab turgan shaxsning manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyatlar manfaatlar to‘qnashuvi deb e‘tirof etiladi

Kombinatning har bir xodimi xizmat va lavozim vazifalarini bajarish chog‘ida vujudga kelgan yoxud vujudga kelish ehtimoli mavjud bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi haqida o‘zining bevosita rahbariga, Xodimlar bilan ishlash xizmatiga hamda Xizmatga zudlik bilan xabar berishi shart.

13. Kombinat xodimlari, nomzodlarni yangidan ishga qabul qilishda, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoxud olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligi haqidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar yuzaga kelishiga qarab zudlik bilan o'zining bevosita rahbariga, Xodimlar bilan ishlash xizmatiga hamda Xizmatga oshkor qiladilar.

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda manfaatlar to'qnashuviga oid ma'lumotlarni oshkor qilish va bunday vaziyatlarni hal etish, "Olmaliq KMK" AJ tizimida "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq hal etiladi.

§ 2. Sovg'alar hamda ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari

13. Kombinat xodimlariga o'z xizmat va lavozim vazifa va majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoxud ish jarayoni bilan bog'liq holda mehmondo'stlik belgilari, xizmatlar ko'rsatish, qarz berish, xayriya, imtiyozli kreditlar, kafolat va kafilliklar, to'lovlar, mukofotlar shaklidagi rag'batlantirish vositalarini, naqd pul mablag'lari yoxud ularning ekvivalentini, mol-mulklar, qimmatli qog'ozlar kabi moddiy va nomoddiy yordamlarni bevosita yoxud bilvosita qabul qilish ta'qiqlanadi.

14. Kombinat xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijda olingan har qanday turdagi va shakldagi sovg'a-salomlar, ularning qiymati va miqdoridan qat'iy nazar Kombinatning mulki hisoblanadi hamda uning balansiga o'tkazib beriladi.

15. Kombinat xodimlariga ularning shaxsi bilan bog'liq bayramlar (tavallud kuni, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni) munosabati bilan uning hamkasblari (jamoadoshlari) tomonidan berilgan, xizmat va lavozim (mansab) majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan holda olingan sovg'alar xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

16. Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talab va qoidalarga qat'iy rioya etilishi lozim:

Sovg'alar, Kombinatning eng kamida uch nafar xodimlari ishtiroki va bevosita guvohligida berilishi lozim. Bunda, sovg'a oluvchi va sovg'a beruvchidan tashqari, yana uchta guvoh ishtiroki talab etiladi;

sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea va vaziyat, tabrik nutqida o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar, yig'im va majburiy to'lovlarni qo'shib hisobga olgan holda) 4 (to'rt) bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasligi;

Kombinat xodimi tomonidan Kombinatning boshqa bir xodimiga sovg'a uchun sarflaydigan xarajatning umumiy summasi, har qanday holatda ham 1 (bir) bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasligi lozim.

17. Kombinatning har bir xodimi shaxsi bilan bog'liq bayram munosabati bilan (Siyosatning 16-bandida qayd etilgan) davlat idoralari, korxona va tashkilotlari vakillaridan, jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan (uchinchi shaxslardan) har qanday ko'rinishdagi sovg'alar va boshqa moddiy va nomoddiy qimmatliklarni olishi ta'qiqlanadi.

18. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, ishbilarmonlik muzokaralari, majlis, yig'ilishlarda, xizmat vazifasi bilan bog'liq boshqa tadbirlar chog'ida, Kombinat xodimlari tomonidan sovg'alar berish tartibi Boshqaruv raisining farmoyishi bilan amalga oshiriladi.

19. Sovg'ani qabul qilish yoxud berishning qonuniyligi to'g'risida shubha yoxud gumon tug'ilgan har qanday holatda, Kombinat xodimi Xizmatga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

§ 3. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish,

moddiy rag'batlantirish

20. Nomzodlarni yangidan ishga olishda tanlovlar o'tkazish, xodimlarni yuqori lavozimga tayinlash, rotatsiya qilish, boshqa ishga o'tkazish, xizmat safarlariga yuborish, ularni malaka attestatsiyasidan o'tkazish, ish faoliyatining natijalarini baholash, xorijiy xizmat safarlariga yuborish, mukofot pullarini to'lash, davlat va boshqa mukofotlarga tavsiya etish, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofot va rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar miqdorini belgilash jarayonlari va bosqichlari, barcha xodimlar uchun ochiq, oshkora, shaffof, teng va xolis bo'lib, ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga muvofiq holda amalga oshirilishi shart.

21. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan faoliyatlarining asosiy ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi lozim.

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha erishilgan natijalar har tomonlama xolislik, qonuniylik, adolatlilik, oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan bo'lishi hamda Kombinat xodimlari bilan oldindan va oshkora shaklda muhokama qilinishi shart.

§ 4. Xizmat tekshiruvlari, monitoring, nazorat va o'rganish tadbirlarini o'tkazishning qoida va talablari

22. Xizmat tekshiruvlari, monitoring, nazorat va o'rganish tadbirlarini o'tkazishda Xizmat hamda jalb qilingan Kombinat xodimlari quyidagi qoida va talablarga qat'iy rioya etishlari shart:

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

Obyektni tekshirish bir xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;

sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirish obyekti vakillarining yetarli bilim va ma'lumotlarga ega emasligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo'rqitmasligi;

tekshirilayotgan obyektning xodimlariga tahdid qilmasligi;

tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasliklari va hujjatlarni so'ramasligi;

tekshirish davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy

va professional baho berishi;

basharti tekshirilayotgan obyekt xodimlari va (yoxud) vakillari tomonidan xizmat tekshiruvini amalga oshirayotgan xodimlarga, aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish, xaspo'shlash yoxud yetkazilgan zarar miqdorini kamaytirib ko'rsatish uchun pora va (yoxud) biron-bir moddiy qimmatlik, xizmatlar taklif qilinsa, tekshiruvchi xodim zudlik bilan tekshiruv guruhi rahbarini hamda Xizmat boshlig'ini xabardor qilishi;

tekshiruvchi xodim tekshirilayotgan obyekt xodimlari va (yoxud) vakillari bilan o'zaro munosabatlarda "Olmaliq KMK" AJning "Odob ahloq Kodeksi"da belgilangan tamoyillarga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

23. Vakolatiga xizmat tekshiruvlari, monitoring, nazorat va o'rganish tadbirlarini o'tkazish kabi funktsiya va vakolatlar kiritilgan Kombinatning boshqa bo'linma va tuzilmalari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar natijasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar ustidan ariza va shikoyatlarni sudgacha ko'rib chiqish uchun "Olmaliq KMK" AJ Ijro apparatida Odob-ahloq komissiyalari yoxud apellyatsiya instantsiyalari tashkil etiladi.

Boshqaruv raisining o'rinbosarlari, ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, mansabdor shaxslar, xizmatchi va xodimlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni to'plash va taqdim etish, shuningdek qabul qilingan qarorlar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsan yoxud vakillari (advokat) orqali shikoyat qilish huquqiga ega.

§. 5. Kontragentlar (shartnomaviy sheriklar) va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

24. Kombinat xodimlari kontragentlar (shartnomaviy sheriklar) va uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda:

qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi;

mazkur Siyosat talablariga zid bo'lgan hamda korrupsiyaviy xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishdan saqlanadilar.

25. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarning barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlar va xodimlar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, hamkorlar va boshqa kontragentlarni (shartnomaviy sheriklarni) tanlab olish va baholash bosqichida, O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari, raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hamda ichki normativ hujjatlariga muvofiq, qonuniylik, xolislik, haqqoniylik, halol raqobat, ochiq va shaffof jarayonni ta'minlaydilar.

26. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar xodimlari kontragentlar (shartnomaviy sheriklar) bilan o'zaro hamkorlikda:

bo'lajak kontragentning (shartnomaviy sherikning) ishonchliligini, jumladan, muqaddam korrupsiyaviy holatlar va huquqbuzarliklar sodir etmaganligini, Kombinat xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshiradi;

bo'lajak kontragentni (tanlov, tender g'olibini va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid kontragentini) Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari

va talablari haqida ular bilan tuziladigan xo‘jalik shartnomalar matniga korrupsiyaga qarshi maxsus va alohida huquqiy majburiyat yuklatishni nazarda tutuvchi qoida va shartlarni kiritish orqali xabardor qiladi va tanishtiradi.

§ 6. Xayriya, homiylik va siyosiy partiyalarni moliyalashtirish

27. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining shartlarini tartibga soluvchi xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida, Kombinatda har qanday homiylik va xayriya faoliyatida ishtirok etishga qaratilgan quyidagi majburiy tartib-taomillar belgilanadi:

a) homiylik va xayriya, metsenatlik va boshqa ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish faoliyati O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi;

b) homiylik va xayriya, metsenatlik faoliyati bilan bog‘liq barcha moliyaviy operatsiyalar Kombinatning buxgalteriya hisobi va hisobotlarida batafsil va ishonchli tarzda aks ettirilishi;

v) amalga oshirilayotgan homiylik va xayriya, metsenatlik va boshqa ijtimoiy loyihalar Kombinatning Kuzatuv Kengashi bilan oldindan rasman kelishilganligi va tegishli qarorning mavjudligi;

g) homiylik va xayriya, metsenatlik va boshqa ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish faoliyatini monitoring qilish tartib qoidalari, haqiqatdan ham ushbu faoliyat doirasida amalga oshirilgan to‘lovlar (badallar) pora tariqasida yoki tijorat faoliyatida pora evaziga og‘dirib olish yoki bunday harakatlarda vositachilik qilish sifatida berilishining yashirin shakli emasligiga ishonch hosil qilish imkonini beradigan bo‘lishi lozim.

28. Ushbu Siyosat va amalda tatbiq etilgan tartib-taomillarga (qoidalarga) muvofiq, Kombinatning ishlab chiqarish, xo‘jalik va tijorat faoliyati bilan bog‘liq har qanday noqonuniy imtiyozlar/ustunlik yoki preferensiyalarni olish uchun Kombinat xayriya va homiylik, metsenatlik va boshqa ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida ishtirok etmaydi va bunday toifadagi loyihalarni moliyalashtirmaydi va boshqacha shaklda rag‘batlantirmaydi va/yohud qo‘llab quvvatlamaydi.

29. Kombinat va uning barcha xodimlari qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni zudlik bilan Kombinatning Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

30. Kombinat tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va Kombinatning ayrim xodimlari (boshqaruv a‘zolari, rahbar va mansabdor shaxslar, injener-muhandislar) tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

31. Kombinat tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi majburiy talablar bajarilishi lozim:

a) xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta rasmiy shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim;

b) bunday turdagi shartnomalarga majburiy tartibda korrupsiyaga qarshi shartlar, qoida va talablarni kiritish shart xisoblanadi;

v) Kombinatning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saxifasida, ijtimoiy tarmoqlarda, elektron nashrlarda va boshqa OAVlarda Kombinat tomonidan qabul qilingan xayriya yoki homiylik yordamlariga doir axborot va ma'lumotlar barcha muhim tafsilotlari zudlik bilan joylashtirish majburiy xisoblanadi.

§ 7. Siyosiy faoliyatni moliyalashtirish

32. Ushbu Siyosatga muvofiq, Kombinat hech qanday siyosiy tashkilot yoki harakatni mablag' bilan ta'minlamaydi va siyosiy partiyalarni yoki ularning a'zolarini, shu jumladan, siyosiy lavozimlarga nomzodlarni, ularning saylov kampaniyalarini yoki siyosiy tadbirlarni biron – bir shaklda qo'llab – quvvatlamaydi yoki rag'batlantirmaydi yoxud moliyalashtirmaydi.

§ 8. Vakillar, vositachilar orqali yoki uchinchi shaxslar foydasiga to'lovlar

33. Kombinat va uning xodimlariga ushbu Siyosat tamoyillari va talablariga yoki korrupsiyaga qarshi kurashish qonun hujjatlariga zid bo'lgan har qanday harakatni amalga oshirish uchun Kombinat vakillarini yoki boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilish yoki ulardan foydalanish ta'qiqlanadi.

34. Agar amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan har qanday to'lovning butunlay yoki bir qismi davlat hokimiyati vakili/mansabdor shaxsiga yoki tijorat tashkilotining vakiliga/mansabdor shaxsiga pora sifatida yo'naltirilishi haqida katta ehtimollik/ishonch bilan ma'lum bo'lsa (yoki ma'lum bo'lishi kerak bo'lsa) Kombinat va uning xodimlarga bunday vakillar yoki boshqa uchinchi shaxslar foydasiga to'lovlarni amalga oshirish ta'qiqlanadi.

35. Kombinatni korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilish xavfini kamaytirish yoki oldini olish maqsadida, yuqorida bayon qilingan hatti-harakatlarni (qoidabuzarliklarni) oldini olish va/yoki aniqlash uchun Kombinat xodimlari yoki vakillari va boshqa uchinchi shaxslarga nisbatan kompleks tekshirish (due diligence and forensic audit) hamda "lozim darajada extiyotkorlik qilish" tartib taomillarini oldindan amalga oshirilishini ta'minlaydi.

§ 9. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish

36. Kombinatda barcha moliyaviy operatsiyalar, buxgalteriya yozuvlari va hujjatlar ishonchli bo'lishi, lozim darajada batafsil ma'lumotlar bilan yoritilgan bo'lishi kerak hamda Kombinatning buxgalteriya hisobini yuritishda to'liq va shaffof aks ettiriladi va hujjatlashtiriladi, shuningdek, belgilangan tartibda va davrda tekshirish uchun ushbu hujjatlardan foydalanish kafolatlanadi.

37. Kombinatda ichki moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha quyidagi zarur tartib-taomillar ishlab chiqilgan va tatbiq etilgan:

a) barcha moliyaviy operatsiyalar Kombinatning rahbariyati va boshqa boshqaruv organlarining umumiy yoki maxsus ruxsati (sanksiyasi) asosida va shartnomaviy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi;

b) buxgalteriya yozuvlari, buxgalteriya (moliyaviy) hisobini yuritish sohasida amaldagi standartlariga mos keladigan hisobotlarni tayyorlashga imkon beradigan aniqlik va tafsilotlar darajasida amalga oshiriladi;

s) aktivlarni tasarruf etish (begonalashtirish) faqat Kombinatning rahbariyati (Kuzatuv kengashi) va boshqa boshqaruv organlarining umumiy yoki maxsus ruxsati (sanksiyasi) asosi mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi;

g) aktivlarning haqiqiy qiymati va tarkibi to'g'risidagi buxgalteriya yozuvlari muntazam ravishda va amalda taqqoslanadi, zarur hollarda esa boshqa tegishli choralar ham ko'rilishi ta'minlanadi.

38. Kombinatda, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda to'liq va ishonchli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun javobgarlik va mas'uliyat yuklatilgan xodimlar tayinlangan/belgilangan.

39. Kombinatning ichki moliyaviy nazorat tartib-taomillarga rioya qilmaslik, moliyaviy hisobotlarini buzish yoki soxtalashtirish qat'iyon ta'qiqlanadi va bunday harakat jiddiy qonun buzilishi deb hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

§ 10. Nazorat va audit

40. Kombinatning moliya – xo'jalik faoliyati muntazam ravishda ichki va tashqi auditdan o'tkaziladi.

41. Kombinatning buxgalteriya hisobidagi barcha operatsiyalarining to'liqligi va to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga, Kombinatning ichki lokal hujjatlari talablariga muvofiqligi, shu jumladan, ushbu Siyosatda belgilangan tamoyil va talablarga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi.

42. Ichki nazorat tartib-taomillari doirasida Kombinatda biznes jarayonlarni amalga oshirishning belgilangan tartibini, shu jumladan, Kombinatning aktivlari bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini, ularning iqtisodiy asoslilikini, xarajatlarning maqsadga muvofiqligini, shu jumladan, asosiy buxgalteriya hujjatlari va ushbu Siyosat talablariga muvofiqligi yuzasidan muntazam ravishda tekshiriladi.

§ 11. "Sirli mijoz" tadbiri

43. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan va realizatsiya qilinadigan mahsulotlar (tovarlar), ko'rsatilayotgan xizmatlar (ishlar)ning sifati va shakllangan narxi, shuningdek Kombinat xodimlarining korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga moyilligi mavjudligini aniqlash uchun, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalar bilan yolg'ondan bitim tuzish orqali, ya'ni qonunchilik buzilishi faktini aniqlash va hujjatlashtirish maqsadida tovarlarni, valyuta va boshqa moddiy qimmatliklarni hamda boshqa predmetlarni iste'mol qilish yoxud sotish

maqsadini ko'zlamasdan xarid qilish yoxud yetkazib berishdan iborat bo'lgan maxsus nazorat tadbirlari o'tkazilishi mumkin.

44. Bunday nazorat tadbirlari davomida realizatsiya qilinadigan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar), ko'rsatilayotgan xizmatlar (ishlar)ning sifati, yetkazib berish muddatlari, boshqa muhim shartlarini imtiyozli ravishda o'zgartirish, shuningdek, Kombinat xodimlarining ushbu Siyosat, Xizmatdagi odob-ahloq kodeksi, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomda belgilangan qoidalarga sobitligi, shu jumladan rahbarlar, mansabdor shaxslar va xodimlarning pora olishga moyilligi o'rganiladi.

45. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda o'tkazilgan "sirli mijoz" tadbirlari to'g'risidagi hisobotlar Boshqaruv raisiga taqdim etiladi va korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan taqdirda xizmat tekshiruvini tayinlash haqida qaror qabul qilinadi.

§ 12. Kombinat va xodimlarning xizmat faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

46. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Kombinatning mas'ul xodimlari hamda Xizmat tomonidan ko'rib boriladi.

47. "Olmaliq KMK" AJning rasmiy veb-sahifasiga korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan ayrim jarayon va tartib-taomillarning onlayn translyatsiyalari joylashtiriladi (xususan, xodimlarni ishga qabul qilishga oid suhbatlarni o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish, shu jumladan test sinovlari, xarid komissiyasining majlislari, va boshqalar).

§ 13. Kombinatning ichki normativ hujjatlarini Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish

48. "Olmaliq KMK" AJning ichki normativ hujjatlari va ularning loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish bosqichida, amaldagi hujjatlar va loyihalarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishining oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida, ayni bir vaqtning o'zida Kombinatning Yuridik departamenti (Yuridik xizmati) tomonidan hujjatlar hamda ularning loyihalari qonunchilikda belgilangan tartibda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan ham o'tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijasi, huquqiy ekspertiza natijasi bo'yicha tayyorlanadigan xulosada aks ettiriladi.

Hujjatda yoxud loyihada korrupsiyaviy omillar aniqlangan taqdirda, Yuridik departamentning (Yuridik xizmatning) huquqiy xulosasida ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar va aniq choralar ko'rsatilishi shart.

§ 14. Kombinat xodimlariga maslahatlar berish

49. Kombinat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari yuzasidan, shuningdek ushbu Siyosat, Odob-ahloq kodeksi, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom yoxud boshqa hujjatlarning qoida va talablarini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq savollar tug'lsa, Kombinatning Komplayens xizmatiga quyidagi aloqa kanallari orqali: (+998 71) 202 04 02 (ichki telefon raqami: 431)

E-mail: info@anticorruption.uz yoxud Xizmatga (+998 71) 619 51 16 yohud (+998 93) 182 09 04. Xizmatning Elektron pochta manzili: stop.corruption@agmk.uz orqali to'g'ridan-to'g'ri va hech qanday moneliksiz kunning istalgan vaqtida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanadi. **Qisqa raqamlar, Coll sentr: – 1520; 1161 yohud 1253.**

5-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

50. Basharti, Kombinat xodimining xatti-harakatlarida qonuniyligi yoxud ushbu Siyosat, "Odob-ahloq kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ning qoida va talablarga muvofiqligi yuzasidan asosli shubha, gumonlar paydo bo'lsa, xodimning xatti-harakatlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik yoxud boshqa g'ayriqonuniy alomatlar kuzatilsa, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligini tasdiqlovchi aniq fakt va dalillar mavjud bo'lsa, xodimlar yoxud uchinchi shaxslar bunday ma'lumot va xabarlarni zudlik bilan ushbu Siyosatning 49 va 53-bandlarida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Xizmat boshlig'iga va (yoxud) huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetkazishlari lozim.

51. Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, ijro apparati bo'linmalari rahbarlari, tarkibiy korxonalar rahbarlari huquqbuzarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergan shaxslarning maxfiyligi va havfsizligini ta'minlaydilar, qonunchilikning buzilishi faktlari to'g'risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun ishdan bo'shatilishiga yoxud boshqacha shaklda ta'qibqilinishiga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydilar.

52. Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, ijro apparati bo'linmalari rahbarlari, tarkibiy korxonalar rahbarlari, Xizmat boshlig'i xabar bergan xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar, ulardan qasos olishga qaratilgan harakatlarga, jumladan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, haqoratlash, mukofot va rag'batlantirishlarni cheklash, bosim o'tkazish, tahdid va qo'rquv iskanjasiga olish, Kombinatning boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoxud ular tomonidan ushbu Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarning ta'qib qilinishiga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydilar.

53. Kombinat xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni Komplayens xizmatiga kunning istalgan vaqtida quyidagi aloqa kanallari orqali yuborish mumkin:

Qisqa raqamlar, Coll sentr: – 1520; 1161 yohud 1253.

“(998 93) 182 09 04; “(998 71) 202 04 02 (ichki telefon raqam: 431)” yoxud “(998 71) 619 51 16”.

E-mail: info@anticorruption.uz ga murojaat qilishlari mumkin. Kombinat ijro apparatidagi Xizmatning boshqa telefon raqamlari:

(998 93) 182 24 22; (998 71) 619-23-33; yoxud (998 78) 141-93-33.

Xizmatning @OKMKcompliance va boshqa Telegram kanallari;

“Olmaliq KMK”AJning quyidagi: <https://agmk.uz/ru/obyavleniye/korrupsiyaga-qarshi-kurash> rasmiy veb-sahifasida, shuningdek Vakolatli davlat organining quyidagi: <https://anticorruption.uz/ru/item/report-corruption> rasmiy veb sahifasida joylashtirilgan shakllarni to'ldirgan holda;

Xizmatning elektron pochta manzili: stop.corruption@agmk.uz yoki to'g'ridan-to'g'ri Huquqni muhofaza qilish organlariga.

54. Kombinatning aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Kombinatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq Xizmat xodimi tomonidan xolis va qonuniy tarzda va o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishi ta'minlanadi va ijrosi nazoratga olinadi.

55. Anonim ravishda (faqat Xizmatning Telegram kanallari orqali) yuborilgan xabarlar ham ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Eslatma!!! Biroq, Murojaatchi tomonidan o'z shaxsini oshkor qilinmasligi istagini bildirgan Ariza beruvchi bunday holatda quyidagilarga hech bir istisnalarsiz o'zining to'liq shaklda roziligini bildiradi:

Xizmat xabarga javob berish uchun murojaat etuvchi shaxs (ariza beruvchi) bilan qaytib bog'lanmaydi;

Xizmat yoxud tegishli ijrochi bo'linma (boshqarma, departament, sektor, xizmat, bo'lim, byuro, ofis yoki boshqa) tomonidan murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olishning imkoniyati yo'qligi sabab, xabarni to'liq va har tomonlama tekshirish amalga oshirilmaydi.

Kombinat xodimlari tomonidan yuborilgan xabarga javob berish uchun murojaat etuvchi shaxs bilan quyidagi holatlarda bog'lanilmaydi:

to'liq va keng qamrovli xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumot dalil va isbotlar, shuningdek hujjatlarning yo'qligi;

Kombinat xodimi yoxud uchinchi shaxslar tomonidan qasddan yolg'on yoxud tuhmat ma'lumotlar taqdim etish, ushbu Siyosat qoidalarini qo'pol tarzda buzish hamda ahloqsiz xulq-atvor na'munasi sifatida baholanadi, bunday murojaatni yo'llagan xodimlar yoxud shaxs/shaxslar guruhi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek Kombinatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

56. Kombinat bo'linmalarda korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar va uchinchi shaxslar, basharti ular tomonidan berilgan xabar va ma'lumotlar to'liq o'z tasdig'ini topsa, "Olmaliq KMK" AJ ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida Boshqaruv raisining tegishli qaroriga (buyruq yoki farmoyishiga) muvofiq rag'batlantirilishlari ham mumkin.

57. Kombinatdagi barcha aloqa kanallarining ishlash tamoyillari, olingan xabarlarni qayta ishlash, ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar "Olmaliq KMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy tushdagi ma'lumotlar haqida xabar berish uchun aloqa kanallari to'g'risidagi Nizom"da hamda Kombinatning boshqa tegishli ichki normativ hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

6-bob. Siyosatni qayta ko'rib chiqish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi

58. Ushbu Siyosat quyidagi holatlarda qayta ko‘rib chiqilishi va tuzatilishi kerak:

korruptsiyaga qarshi kurashishning amaldagi Siyosat va tartib-taomillarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan darajada O‘zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchiligi o‘zgargan taqdirda;

korruptsiyaga qarshi kurashishning samarasiz nazorat hamda monitoring tartib-taomillari aniqlangan holatlarda, shuningdek Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar faoliyatida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati tug‘ilganda;

Kombinat va uning tarkibidagi bo‘linmalarning tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, ularning vazifa va funksiyalari, faoliyat yo‘nalishlari alohida xususiyatlari va boshqa qoida va normalar o‘zgarganda, ushbu Siyosat qayta ko‘rib chiqilishi, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

“Olmaliq KMK”AJ
Komplayens xizmati boshlig‘i v.v.b.

Sh.X. Jo‘rayev

“Olmaliq KMK”AJ
Yuridik departament boshlig‘i

S.K. Kasimov

“Olmalik KMK”AJ faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son hamda 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmonlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosi doirasida **“Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo‘yicha talablar va qo‘llanma” korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standartini joriy etish yuzasidan “Olmalik KMK”AJning Kuzatuv kengashi a’zolariga**

SO‘ROVNOMA/ANKETA

1. “Olmalik KMK”AJ 2025-yil ____ ____dagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” Sizning bevosita ishtirokingizda qabul qilinganmi?

ha ☐

yo‘q ☐

2. “Olmalik KMK”AJ vakili sifatidagi faoliyatingizda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablariga to‘liq rioya qilasizmi?

ha ☐

yo‘q ☐

3. “Olmalik KMK”AJ xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlariga yo‘l qo‘yganlik holatlari to‘g‘risida Sizda ma’lumot mavjudmi?

ha ☐

yo‘q ☐

4. Sizning yaqin qarindoshlaringiz “Olmalik KMK”AJda rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borishadimi?

ha ☐

yo‘q ☐

5. “Olmalik KMK”AJ faoliyatiga aloqador korrupsion huquqbuzarliklarga duch kelganmisiz?

ha ☐

yo‘q ☐

6. “Olmalik KMK”AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”ni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflaringiz.

(imzo) (F.I.Sh.)

“____” _____ 2025-yil.

KAFOLAT XATI

Men, _____

(F.I.Sh (to'liq) va egallab turgan lavozimi (to'liq)).

2024-yil _____ dan shu kunga qadar o'z faoliyatim davomida "Olmaliq KMK" AJning Korrupsiyaga qarshi siyosati, **"Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo'yicha talablar va qo'llanma"** korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini buzmadim, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatiga shohid bo'lmadim hamda shubhali kelishuvlarda ishtirok etmadim.

_____/_____/_____
(f.i.sh.) (imzo) (sana)

Na russkom yazyke:

Ya, _____, s
_____ 2024 po segodnyashniy den v svoey deyatelnosti ne narushal/a
trebovaniya antikorrupcionnoy politiki AO "Almalikskiy GMK", sistemy
menedjmenta protivodeystviya korrupsii i trebovaniya mejdunarodnogo standarta ISO
37001:2016, ne byl/a svidetelem korrupcionnyh insidentov i ne uchastvoval/a v
somnitelnyh sdelkah.

_____/_____/_____
(f.i.o.) (podpis) (data)